

Abdullayeva Gavhar Saparovna,
Ishmatova Ozoda Sirodjoyina

FONETIKA RITMIKA




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

*Abdullayeva Gavhar Saparovna,
Ishmatova Ozoda Sirodjonva*

FONETIK RITMIKA

*60110400 - Maxsus pedagogika (surdopedagogika) ta'lim
yo'nalishi talabalari hamda amaliyotchi surdopedagoglar
uchun o'quv qo'llanma*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI

Chirchiq-2023

Olmaliq kitob business

UO'K 37.0:376
K BK 53.5
A-15

G.S. Abdullayeva, O.S. Ishmatova / Fonetik ritmika / O'quv qo'llanma. - Toshkent: «Olmaliq kitob business», 2023. – 252 bet.

Mualliflar tomonidan taqdim etilayotgan o'quv qo'llanmada eshitishda nugsoni bor o'quvchilar og'zaki nutqini rivojlantirishning mazmuni va maqsadlari yoritilgan.

Mazkur o'quv qo'llanma eshitishda (zaif eshituvchi, kar) va nutqida nugsonlari bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan muassasalar o'qituvchilari, tarbiyachilari va logopedlari, hamda shu toifadagi farzandlari bor ota-onalar, maxsus pedagogika yo'nalishi o'quvchilari va talabalariga mo'ljallangan.

Fonetik ritmikani mazkur tavsiya etilayotgan usuli talaffuzida nugsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek, o'zbek tilini o'rganishni boshlayotgan chet elliklar uchun qo'llanilishi mumkin.

Tagrizchilar:

Achilova S.J. - CHDPU p.f.f.d (PhD) v.b. dotsenti
Shokirova Sh.D. - TDPU p.f.f.d (PhD) dotsenti

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 17-martdagi 68-sonli buyrug'iga asosan nashr etilgan

ISBN 978-9910-751-13-4

© G.S. Abdullayeva, O.S. Ishmatova, 2023
© «Olmaliq kitob business», 2023

2

MUQADDIMA

Ma'lumki, eshitish qobiliyati past bo'lgan ko'plab bolalarning og'zaki nutqi bir qator nutq tovushlarini takrorlashdagi nugsonlar va uning ritmik - intonatsion tomonining buzilishi bilan tavsiflanadi.

Fonetik ritmika talaffuzni shakllantirish ishlariga organik ravishda kirishadi va eshitish qobiliyati zaif kichik yoshdagi bolalar nutqini tuzatishda ham, ularning harakatlari tabiiyligini rivojlitirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Fonetik ritmika - bu turli harakatlar (tana, bosh, qo'llar,oyoqlar) muayyan nutq materialining (iboralar, so'zlar, bo'g'inlar, tovushlar) talaffuzi bilan uyg'unlashtirilgan harakati mashqlar tizimidir.

Ilmiy adabiyotlarda harakatlarning rivojlanishi va talaffuzning shakllanishi o'rtasidagi fillogenetik bog'liqlik isbotlangan. Tananing va nutq organlari harakatlarning uyg'unligi, eshitish qobiliyati zaif bolalarga xos bo'lgan nutqning keskinligi va monotonligini bartaraf etishga yordam beradi. Tana bilan ritmik harakatlarni bajarishda bolalar tomonidan erishiladigan erkinlik va qulaylik nutq organlarining harakatlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu qo'llanmada Fonetik ritmika usuli eshitish qobiliyati zaif bolalar nutqining talaffuz tomonini shakllantirish va tuzatish bo'yicha ish uslubini sifatida keltirilgan. (Fonetik ritmika, albatta, surdopedagogikasida qabul qilingan talaffuz ustida ishlashning boshqa texnikasi va usullarini rad qilmaydi.)

Fonetik ritmika mashg'ulotlarida asosiy yo'nalishlarni belgilovchi maqsadlar quyidagilarni nazarda tutadi:

- ❖ nutq-harakat analizatorlari hamda eshitish analizatorlarini rivojlantirish umumiy motorikani rivojlantirish bilan uyg'unlashtirish;

- ❖ zaif eshituvchi bolalarda umumiy motorikani nutq-harakatga aylantirish jarayoni orqali aniq intonatsiyali va ritmik tabiiy nutqni shakllantirishga ko'maklashish;

- ❖ o'quvchilarning eshitish idrokini rivojlantirish va shu orqali talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish hamda tuzatish jarayonida foydalanish.

Mashg'ulotlar mazmunini belgilashda, eshitish qobiliyati zaif shaxslarning talaffuziga bo'lgan talablardan tashqari, ushbu bolalarda harakatlarni rivojlantirishga oid tavsiyalar ham hisobga olinadi. Yugoslaviyalik defektologlarning fonetik ritmika bo'yicha mashg'ulotlar o'tkazishdagi tajribasi mualliflarga katta yordam berdi.

Fonetik ritmika mashg'ulotlaridagi harakatlarda va og'zaki nutqni o'z ichiga olgan barcha mashqlar quyidagilarga qaratilgan:

- ❖ nutqiy nafasni normalashtirishga va u bilan bog'liq bo'lgan nutqning uzviyligiga;

3

❖ me'yordan qo'pol og'ishlarsiz normal tembrni saqlab, ovoznining kuchi va balandligini o'zgartirish ko'nikmalarini shakllantirishga;

❖ tovushlarni va ularning birikmalarini alohida, bo'g'im va so'z turkumlarida, so'zlarda, iboralarda to'g'ri ifodalashga;

❖ nutqiy materialni ma'lum bir sur'atda ifodalashga;

❖ turli ritmlarni idrok etish, farqlash va ifodalashga;

❖ o'z his-tuyg'ularini turli intonatsion vositalar orqali ifodalash ko'nikmasini shakllantirishga.

Qo'llanmada tovushlar va ularning birikmalari ustida ishlash bo'yicha tegishli bo'limlar yoritilgan; ritm va temp; nutqiy nafas va nutq uzviyligi; ovoz va intonatsiya.

Nutq ustida ishlashda barcha bo'limlar bir xil darajada ahamiyatga ega va ularning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq. So'zda bo'g'inlarning va gap yoki sintagmadagi so'zlarning uzluksiz talaffuzi nutq shakllanishining juda muhim va murakkab qismidir. Uzviylik ustida ishlash nutqiy nafasni normalashtrish va ovozni boshqarish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq. Nutqiy nafasni rivojlantirish mashqlari to'g'ri diafragmal nafasni, nafas chiqarish davomiyligini, uning kuchini va bosqichma-bosqichligini rivojlantirishga yordam beradi. Ovoz ustida ishlash uzorq nafas chiqarishda uni va undoshlarning talaffuzi bilan boshlanadi. Shu bilan bir vaqtda, tovushlarning sof talaffuzi uchun zarur shart bo'lgan so'zlarning elementlari bilan ishlash amalga oshiriladi.

I BOB. FONETIK RITMIKANING MAQSAD VA VAZIFALARI.

1-§ Eshitishda nuqsoni bor bolalar og'zaki nutqini shakllantirishda fonetik ritmik texnologiyasining roli.

Surdopedagogika fanidan ma'lum-ki, eshitishda nuqsoni bor bolalar og'zaki nutqining rivojlanganlik darajasi, ularning funksional eshituv qobiliyati yo'qolgan vaqtiga bog'liq bo'ladi. Bola eshituv qobiliyatini qanchalik etra yo'qotgan bo'lsa, uning nutqi va ayniqsa ekspressiv nutqini egallashi shunchalik orqada qoladi. Bunday toifadagi bolalarning ichki nutqi, lug'at boyligi eshituv orqali to'planishi to'xtaganidan so'ng, tashqi nutq o'z-o'zidan rivojlanishdan to'xtaydi. Ularning mulokat vositasi imo-ishora va daktil nutqi bo'lib qoladi.

Hozirda O'zbekistonda Zamin fondi tomonidan Koxlear implant qurilmasini o'rnatish orqali eshitish darajasini qisman tiklashga erishilmoqda va ko'pchilik karlikning IV darajasiga ega bo'lgan bolalar zaif eshituvchilar toifasiga kiritilmoqda. Ammo zaif eshituvchilar ham og'zaki nutqdan foydalanmaydilar.

Bunday bolalarning nutqini rivojlantirish usullari xilma xil bo'lib, ulardan biri bu fonetik ritmika metodikasidir. Fonetik ritmika metodikasining boshqa metodikalardan farqi, ushbu usulni ilk yoshdagi eshitishda muammosi bor bolalarga qo'llanganda samara berganligida.

Fonetik ritmika mashg'ulotlarida ovoz, nutqiy nafas, temp va ritmni rivojlantiruvchi mashqlar musiqa bilan va musiqasiz amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar mazmuniga faqat harakatlarni, talaffuzsiz - musiqiy va ritmik stimulyatsiyalar bo'lgan mashqlar ham kiritilgan. Ushbu mashqlarning maqsadi nafas olishni normalashtrish, ritm tuyg'usini rivojlantirish va harakatlarni rivojlantirishdir. Ushbu harakati mashqlar ritm hissi va nafas organlaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, musiqa mos harakatlarni bajarish, bolalarning tana harakatlarni rivojlantirishning samarali usullaridan biridir.

Musiqiy-ritmik stimulyatsiyalar - raqs elementlari bilan harakati mashqlarning kombinatsiyasidir. Ular har bir mashg'ulotning majburiy komponenti bo'lib, musiqa ishtirokida o'tkaziladi. Musiqiy jo'rlikni tanlashda, o'quvchilar ritmik zarblarni osongina ajrata oladigan raqs musiqasiga ustunlik beriladi. U quvmoq, ergashiruvchi bo'lishi kerak, chunki bolalarga aynan shunday musiqa o'zining ritmik holatini harakatlarni orqali ifodalash imkonini beradi. Bundan tashqari, musiqiy jo'rlik eshitish idrokini rivojlantirish uchun stimulyatorlardan biri ekani aniqlangan. Musiqa orqali (eshitish orqali) bolalarga tovushlarning turli ritmlari va tovush templarini yetkazish, shuningdek, ularga sinxron harakat qilish qobiliyatini o'rnatish osonroq.

Musiqqa jo'rligida bajariladigan harakatlarning tabiati turli bo'ladi. Nafas olishni normalashtirish uchun mashqlarni bajarayotganda bir maromdagi harakatlar ustunlik qiladi.

Harakatlanishdagi ritm ustida ishlashda rags elementlari hamda ritmga mos yurish harakatlari qo'shildi. Ular turli xil qo'l harakatlari bilan, qarsaklar bilan birgalikda taklif qilingan ritmning tabiatiga mos keladi.

Nutqning talaffuz tomonini normalashtirishga qaratilgan mashqlar tizimida musiqqa jo'rligisiz turli harakatlar qo'llaniladi:

- tana korpusining harakatlari;
- oldinga, yon tomonlarga egilishlar, 90, 180, 360 gradusga burilishlar;
- bosh harakatlari - o'ngga, chapga, oldinga, ortga burilishlar;
- qo'l harakati;
- yuqoriga, yon tomonlarga, oldinga ko'tarishlar, yelkalarni ko'tarish va tushirishlar, panjalarning aylanish harakatlari;
- oyoq harakatlari;
- tizzalarni bukish va tekislashtirish;
- oyoqlarni yelka kengligida o'rnatish va h.k.z.

Bu harakatlarning tabiati ham har xil - maromli va sekin harakatlardan tortib, keskin va tezlashgan harakatlargacha olib boriladi. Nutqiy nafas va nutq uzviyligi ustida ishlashda qo'llaniladigan mashqlar ohista harakatlar bilan tavsiflanadi.



(1-rasm)

Nutqning ritmi va tempi, ovoz va intonatsiya ustida ishlaganda harakatlar tabiiy xarakterga ega bo'lib, tovushlar va bo'g'inlarni talaffuz qilishda bajariladigan harakatlar, shuningdek, inkor etish va h.k.z. bilan bog'liq tabiiy imo-ishoralarni uyg'unlashtiradi.

Fonetik ritmika - bu muayyan nutqiy materialni (iboralar, so'zlar, bo'g'inlar, tovushlar) og'zaki talaffuz etishda tana qismlari (tana, bosh, qo'llar, oyoqlar) harakatlari bilan uyg'unlashtirilgan harakati mashqlari tizimidir.

Fonetik ritmika metodikasining asosiy maqsadi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish taassurotlari bilan boyitish, ovozi funktsiyalarini faollashtirish, eshitish estetikasi asosida nutq faoliyatini, uning ritmointonatsion va talaffuz tomonini shakllantirishdir.

Fonetik ritmika fan sifatida - muayyan nutqiy materialni (iboralar, so'zlar, bo'g'inlar, tovushlar) og'zaki talaffuz etishda tana qismlari (tana, bosh, qo'llar, oyoqlar) harakatlari bilan uyg'unlashtirilgan harakati mashqlar tizimining ilmiy nazariy asoslarini o'rganish, ta'qib etish va o'rgatish metod va usullarini o'rganuvchi fandir.

Ushbu faning maqsadi og'zaki nutqdagi nuqsonni tuzatishda:

- eshitish, vizual xotira, e'tiborni;
- optik-fazoviy tasavvurlar va ko'nikmalarni;
- umumiy harakatlarni statik va dinamik muvoqlashtirish;
- nozik ixtiyoriy harakat mahorati va yuz ifodalarni;
- fonetik idrokni;
- harakatdagi ritm va temp hissini, musiqiy obrazlarni idrok etish qobiliyati, harakatlardagi hislar va nutqni;
- ritmik ekspressivlikni;
- temp, nafas olish ritmi va nutqni rivojlantirishning ilmiy amaliy metodlarini o'rgatishdir.

Fonetik ritmika fanining ob'ekti eshitishda nuqsoni bo'lgan shaxslarning og'zaki nutqi.

Fonetik ritmika fanining predmeti eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini rivojlantirishda nutq va harakatning muayyan bir ritmini uyg'unlashtirish jarayoni.

Fonetik ritmika inkluziv ta'limga jalb etilgan eshitishda nuqsoni bor, ko'rishda nuqsoni bo'lgan, og'ir nutqiy nuqsonga ega o'quvchilarga umumta'lim dasturining asosiy mazmunini o'zlashtirishda har tomonlama yordam beradi.

Fonetik ritmika mashg'ulotlarida harakat va og'zaki nutqni o'z ichiga olgan mashqlar quyidagilarga qaratilgan:

- nutqiy nafasini normalashtirish;
- ovoznining kuchi va balandligini o'zgartirish ko'nikmalarini shakllantirish;
- tovushlar va ularning birlikmalarini alohida va so'z birlikmalarida, iboralarida to'g'ri talaffuz etish;
- nutq materialini ma'lum bir sur'atda takrorlash;
- turli ritmlarni idrok etish, farqlash va takrorlash;
- o'z his-tuyg'ularini turli intonatsiyalar bilan ifoda etish qobiliyati.